

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING BANDLIGI TA'MINLANMAGAN YOSHLARNI ANIQLASH VA ULAR BILAN ISHLASH FAOLIYATI

Mamajonova Oygun Omonjon qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

3-bosqich 308-guruh kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali Profilaktika inspektorining bandligi ta'minlanmagan yoshlarni aniqlash va ular bilan ishlash faoliyatining o'ziga xosligi ushbu turdagи huquqbazarlikning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart sharoitlar hamda profilaktika inspektorining bandligi ta'minlanmagan yoshlarni aniqlash sohasidagi huquqbazarlik faoliyati yoritilib mamlakatimizda ushbu huquqbazarliklarni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: huquqbazarlik, bandligi ta'minlanmagan yoshlar, huquqbazarliklarni oldini olish, profilaktika.

Аннотация: Посредством данной статьи раскрываются сущность экологических правонарушений при предупреждении преступлений, причины возникновения данного вида преступлений и условия, сделавшие их возможными, а также деятельность инспектора по профилактике преступлений в сфере экологии. Выделены и показаны меры, направленные на предотвращение этого преступления в нашей стране.

O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashning xalqaro prinsiplaridan kelib chiqqan holda "Kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyiliga asoslangan demokratik islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarmi hal qilish uchun zarur chora tadbirlar ko'rilmoxda. Bu borada davlat organlari jamoat birlashmalari fuqarolik jamiyati institatlari va fuqarolarning say harakatlarini uyg'unlashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Profilaktika inspektorining bandligi ta'minlanmagan yoshlar bilan ishlash faoliyatining asosiy vazifalari jamiyatda yoshlar bandligini ta'minlash orqali huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish huquqbazarlikni sodir etilish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart sharoitlarni aniqlash o'rganish va bartaraf etish chora tadbirlarini ko'rishdan iborat. Mamlakatimizda ushbu jarayonni tashkil etish ko'lamidan kelib chiqqan holda mazkur vazifalarni yanada kengaytirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi murakkab va tahlikali zamonda jadal o'zgarib borayotgan davr bilan hamnafas yashash, qo'lga kiritgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, xotirjamlik va havolanish kayfiyatiga berilmasligimiz, yangi marralar sari intilishimiz, doimo izlanib yashashimiz, taraqqiyot va yangilanish yo'lidan izchillik bilan yanada ilgarilab borishimiz zarur. Shu ma'noda aytish mumkinki, erishilgan yutuqlar bilan birga hali bandligi ta'minlanmagan yoshlar

o'rtasida huquqbazarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish borasida o'z yechimini kutayotgan muhim masalalar ham mavjud. Yoshlarni ish bilan ta'minlash ularni bandligi sohasida huquqbazarlik profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi shuningdek huquqbazarlikning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi kutilayotgan natijalar bermayapti.

Jamiyatda yoshlar o'rtasida jinoyatchilik salmog'i keskin oshmoqda. Bandligi ta'minlanmagan yoshlar o'rtasida huquqbazarliklar profilaktikasini tashkiliy-huquqiy tartibga solish sohasida yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, uning ilmiy-nazariy asoslarini yanada boyitishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish zarurati shular jumlasidandir. Dunyo hamjamiyati jinoyatchilikka qarshi kurashning o'ziga xos bo'lgan samarali siyosatini tatbiq etish haqida qayg'urmoqda. Bu borada shaxs, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlik hamda insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan himoyalash, shuningdek huquqbazarliklar profilaktikasining zamonaviy va samarali tizimini yo'lga qo'yish muammolari tobora global va dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Yoshlar o'rtasida nazoratsizlikni oldini olish va huquqbazarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish borasidagi xorijiy davlatlar to'plagan tajribani o'rganish asosida huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, yoshlar bilan olib boriladigan profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, ularni bandligi ta'minlashning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish muammolarining ilmiy yechimlarini topish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan rivojlangan davlatlar amaliyotini o'rganish hamda uning natijalarini milliy tizimga tatbiq etish tadqiqot ishidan ko'zlangan birlamchi vazifa hisoblanadi. Shuninigdek, yoshlar daftariga keladigan bo'lsak, yoshlar daftari bu har bir sektor xududi kesimida istiqomat qilayotgan, 18 yoshga to'lgan 30 yoshdan oshmagan ishsiz yoshlarning manzilli ro'yxati qad etiladigan elektron dastur hisooblanib, yoshlar daftarini sektor kotibi va yoshlar ishlari agentligining tuman bo'limi boshlig'i tomonidan yuritiladi. Ushbu daftarga yoshi, jinsi, kasbga layoqati bo'yicha: bitiruvchi yoshlar, hozirda ishsiz bo'lgan yoshlar, ishga muxtoj nogiron yoshlar, xorijdan qaytgan yoshlar, JIEMdan ozod etilgan yoshlar, xarbiy-xizmatdan qaytgan yoshlar kiritiladi. Zero, kriminologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, oldini olish choralarini yaxshilash bilan har o'nta jinoyatning yettasini oldini olishga erishish mumkin. Ta'kidlash joizki, bandligi ta'minlanmagan yoshlar o'rtasida huquqbazarliklarga barham berish emas, balki ularning barvaqt oldini olish, sodir etilish ko'rsatkichlarini imkon qadar eng past miqdorgacha kamaytirish real maqsad hisoblanadi. Chunki huquqbazarliklar – jamiyat rivojining har qanday

bosqichida mavjud bo'lgan ijtimoiy xavfli, ijtimoiy-huquqiy hodisa. Shu bois insoniyat rivojining ma'lum bir bosqichida huquqbuzarliklar butunlay yo'q bo'ladi, deb aytish mumkin emas so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning «Endilikda ichki ishlar, prokuratura, yoshlar ittifoqi, Xotin-qizlar qo'mitasi, mahalla hamda boshqa davlat va nodavlat tashkilotlar jinoyatchilik va huquqbuzarlik uchun omil bo'layotgan ishsizlik, giyohvandlik, qarovsizlik, oilaviy nizolar va shu kabi boshqa illatlarning vaqtida oldini olish choralarini ko'rishi zarur. Shuningdek, umumiylidkan qochish, buning uchun yagona maqsad sari intilib, hamkorlikda faoliyat olib borish, har bir muammoga aniq reja asosida yondashishi lozim» mazmunidagi g'oyaviy qarashlari bandligi ta'minlanmagan yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha idoralararo dasturlarni manzillilik, sohaviy ixtisoslashuv, hududiy va boshqa o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqish va amalga oshirishning tizimli yo'lga qo'yilishini ta'minladi. Natijada, bandligi ta'minlanmagan yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etish samaradorligi oshirildi. Xususan, ularning bandligini ta'minlash, ijtimoiy-foydali faoliyatga jalb etish va bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasidagi ishlar faollashtirildi. Bu borada profilaktika inspektori lavozimiga tayinlanadigan shaxslarga qo'yiladigan talablar kuchaytirildi. Ular uchun munosib ish sharoitlarini yaratish bo'yicha zarur choralar amalga oshirildi. Bu esa o'z navbatida, ular zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning talab darajada bajarilishi uchun shaxsiy javobgarligini jiddiy kuchaytirishni taqozo etadi. Zotan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, «Biz profilaktika inspektorlarining yashashi va ishlashi uchun barcha sharoitlarni yaratib berdik. Endi ularning salohiyatini, mahalla fuqarolar yig'ini bilan hamkorligini kuchaytirish zarur. Bundan keyin mahallalardagi profilaktika inspektori lavozimiga tanlov asosida uch nafar eng professional xodimdan bittasi saralab olinadi. Shunday qilsak, ular o'rtasida raqobat kuchayadi, odamlarning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlaydigan chinakam samarali tizim yaratiladi»

Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi taxrirdagi Kontitutsiysi
2. Sh.M.Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Xalq so'zi. – 2016. – 7 dekabr.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlariga bayram tabrigi <https://uza.uz/posts/57521>
- 4.Ismoilov T.I. O'zbekistonda bandligi ta'minlanmagan yoshlarning ijtimoiy faolligi [monografiya]. –T., 2021
5. Sh.M. Mirziyoyev. Konstitutsiya erkin va farovon xalqimiz mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevordir. – Toshkent. «O'zbekiston» NMIU , 2018. – 64 b.